
Akademik litsey ijrochi direktori B.Abdurazzoqov Janubiy Koreyaning Chungcheongnam xalqaro ta'lim markaziga tajriba almashish maqsadida xizmat safarida

SamDCHTI akademik litseyi ijrochi direktori B.Abdurazzoqov Janubiy Koreyaning Chungcheongnam xalqaro ta'lim markaziga tajriba almashish maqsadida yuborilgan edi.

Jumladan, unda B.Abdurazzoqov Chungnam provinsiyasi rahbari janob Kim Jichol bilan uchrashdi. Shuningdek, tomonlar o'rtasida o'qituvchi va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish, ularning tajribasini oshirish va birgalikda darsliklar va adabiyotlar yaratish yuzasidan takliflar almashinildi.

Muzokaralar davomida SamDCHTI akademik litseyi o'qituvchilarining Chxunnom do oliy maktabida tajriba almashinuvi yuzasidan o'zaro kelishuvga erishildi.

